



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI



PRESS-RELIZ



2023-yil yanvar-sentabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

ASOSIY KO‘RSATKICHLAR

2023-yil yanvar-sentabr, dastlabki ma’lumotlar

Doimiy aholi soni

(2023-yil 1-oktabr holatiga)

36 599,8
ming kishi



716 885

nafar

Tug‘ilganlar

+5,1%

2022-yilning mos davriga nisbatan o‘shish

Tug‘ilish koeffitsiyenti = 26,4 ‰ (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 ‰ ga oshgan)



129 664

nafar

Vafot etganlar

-0,4%

2022-yilning mos davriga nisbatan kamayish

Vafot etish koeffitsiyenti = 4,8 ‰ (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 ‰ ga kamaygan)



587 221

nafar

Tabiiy o‘shish

+6,5%

2022-yilning mos davriga nisbatan o‘shish

Tabiiy o‘shish koeffitsiyenti = 21,6 ‰ (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 ‰ ga oshgan)



2 262

kishi

Xorijdan
ko‘chib
kelganlar



-12 404

kishi

Migratsiya saldosini

14 666

kishi

Xorijga
ko‘chib
ketganlar

Doimiy aholi sonining umumiy o‘shishi



+778,6 ming kishi

2022-yilning mos davriga nisbatan 2,2 ‰ ga oshgan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

ASOSIY KO‘RSATKICHLAR

2023-yil yanvar-sentabr, dastlabki ma’lumotlar

Demografiya statistikasi – ijtimoiy-iqtisodiy statistika sohalaridan biri bo‘lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig‘ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi;

QAYD ETILGAN NIKOHLAR VA NIKOHDAN AJRALISHLAR



184 461 ta

Qayd etilgan
nikohlar soni



37 654 ta

Nikohdan
ajralishlar soni




2022-yil mos davriga nisbatan o‘zgarish:

Qayd etilgan nikohlar soni bo‘yicha



-6,3%



Nikohdan ajralishlar soni bo‘yicha



+3,3%



Nikoh tuzish koeffitsiyenti = 6,8 %

(2022-yilning mos davriga nisbatan 0,6 % ga kamaygan)



Nikohdan ajralish koeffitsiyenti = 1,4 %

(2022-yilning mos davriga nisbatan o‘zgarish yo‘q)



204,1 %

1000 ta nikohga
to‘g‘ri keladigan ajralishlar

+19,0 %


2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘zgarish

Bunda har 1000 ta tuzilgan nikohga to‘g‘ri keladigan nikohdan ajralishlar soni **nikoh mustahkamligi koeffitsiyentini** ifodalaydi.

Nikoh yoshi – O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda, nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin;

O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni


1-oktabr holatiga, ming kishi



2023-yil 1-oktabr holatiga doimiy aholi soni **36 599,8** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **18 422,9** ming kishini, ayollar soni **18 176,9** ming kishini, shahar aholisi soni **18 667,2** ming kishini, qishloq aholisi soni **17 932,6** ming kishini tashkil etdi.

Doimiy aholi sonining jinsi, shahar va qishloq joylari bo‘yicha taqsimlanishi


1-oktabr holatiga, ming kishi



Yosh – imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o‘lchangan, tug‘ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo‘lgan davr oralig‘iga tengdir. Masalan, insonni tug‘ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng;

Yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi

2023-yil 1-yanvar holatiga




2023-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **2160,4** ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib, **641,2** ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **2001,8** ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya’ni **715,3** ming kishini tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi – tug‘ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish yillari soni. Bunda ushbu ko‘rsatkich hisoblangan yildagi yoshlar bo‘yicha o‘lim darajasi saqlanib qoladi deb hisoblanadi;

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi


2023-yil 1-yanvar holatiga



2023-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi aholisining tug‘ilishda kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **74,3** yoshni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich erkaklar uchun **72,1** yosh, ayollar uchun esa **76,6** yoshni tashkil etgan. Shuningdek, shahar joylarda **74,8** yosh, qishloq joylarda esa **73,6** yoshni tashkil etmoqda.

Keksayish koeffitsiyenti – BMT demograflari tomonidan keksayish jarayonini baholash maqsadida uch bosqichli mezon ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, 65 va undan yuqori yoshdagi aholi ulushi 4,0 foizdan kam bo‘lsa – demografik yosh, 4,0-7,0 foiz bo‘lsa – keksayish bo‘lag‘asida, 7,0 foizdan oshsa hudud aholisi demografik keksa hisoblanadi;

O‘zbekiston Respublikasi aholisining keksayish koeffitsiyenti dinamikasi




2023-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida 65 va undan yuqori yoshdagi aholi salmog‘i **5,4** foizni tashkil etdi. Bu esa, xalqaro mezonlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi aholisi “demografik keksayish bo‘lag‘asida”gi mamlakatlar qatoriga kirishini anglatadi.

Demografik bosim koeffitsiyenti – 1000 ta mehnatga layoqatli yoshdagi (16-54 yoshli ayollar va 16-59 yoshli erkaklar) aholiga qancha mehnat yoshidan kichiklar (0-15 yoshlilar) va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (55 yosh va undan katta ayollar, 60 yosh va undan katta erkaklar) to‘g‘ri kelishini anglatadi;

Demografik bosim koeffitsiyenti

(yil boshiga 1000 ta mehnatga layoqatli aholiga nisbatan, kishi)




Umumiy demografik bosim koeffitsiyenti **720** kishini (har 1000 mehnatga layoqatli aholiga nisbatan), mehnat yoshidan kichiklar bosim koeffitsiyenti **534** kishini, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar bosim koeffitsiyenti **186** kishini tashkil etmoqda.

Aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti – bir ayoldan tug‘ilib reproduktiv davr (15-49 yosh) oxirigacha yetib borgan qizlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

Aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti nemis olimi R. Kuchinskiy tomonidan taklif etilgan va fanga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha netto-koeffitsiyenti dinamikasi, nafar




Demograflar tomonidan netto-koeffitsiyentini baholash maqsadida uch bosqichli mezon ishlab chiqilgan. Agar netto-koeffitsiyenti **1,0** dan kam bo‘lsa, mamlakat demografik kamayish jarayonida, **1,0** ga teng bo‘lsa, demografik turg‘unlik va **1,0** dan oshsa, demografik o‘shish jarayonida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti **1,579** nafarni tashkil etmoqda. Bu esa, xalqaro mezonlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi demografik o‘shish jarayonida ekanligini anglatadi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi);

Aholi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil 1-oktabr holatiga



2023-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **32,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Poytaxtda yashovchi doimiy aholi soni 3 milliondan oshdi




2023-yil 1-oktabr holatiga Toshkent shahrida yashovchi doimiy aholi soni **3 020,5** ming kishini, shundan erkaklar **1 481,9** ming kishini, ayollar esa **1 538,6** ming kishini tashkil etdi.

Poytaxtda yashovchi doimiy aholi soni ilk bor 1960-yilda 1 million, 1985-yilda 2 million, hozirgi kunga kelib 3 milliondan oshdi.

Hududlarning aholi soni bo‘yicha guruhlanishi

2023-yil 1-oktabr holatiga, kishi



Eng ko‘p doimiy aholi qaysi hududlarda?

2023-yil 1-oktabr holatiga

➤ O‘zbekistonda aholi soni 4 milliondan oshgan viloyatlar soni ikkitaga yetdi.


Samarqand viloyati **4 186,1** ming kishini, shundan erkaklar **2 108,1** ming kishini, ayollar esa **2 078,0** ming kishini tashkil etadi.



Farg‘ona viloyati **4 040,6** ming kishini, shundan erkaklar **2 038,7** ming kishini, ayollar esa **2 001,9** ming kishini tashkil etadi.

Aholi zichligi – muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi
2023-yil 1-oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil 1-oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **81,5** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,7** kishiga ortgan (2022-yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km.ga **79,8** kishi). Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida **6742,2** kishi, Andijon viloyatida **785,1** kishi, Farg‘ona viloyatida **597,7** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati **9,6** kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **12,0** kishini tashkil etgan.

Aholi zichligi dinamikasi


1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni


2023-yil 1-oktabr holatiga

Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi



Hududlar bo‘yicha doimiy aholisi soni eng ko‘p Samarqand viloyatida **4 186,1** ming kishi, Farg‘ona viloyatida **4 040,6** ming kishi, Qashqadaryo viloyatida **3 539,6** ming kishi, eng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida **909,7** ming kishi, Navoiy viloyatida **1 070,5** ming kishi va Jizzax viloyatida **1 499,8** ming kishini tashkil etgan.

Aholi ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami aholiga nisbatan



Doimiy aholi sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida **11,4 %**, Farg‘ona viloyatida **11,0 %**, Qashqadaryo viloyatida **9,7 %**, Andijon viloyatida **9,2 %** va Namangan viloyatida **8,3 %** ni tashkil etgan.

Aholi ulushi nisbatan kam bo‘lgan hududlar, jami aholiga nisbatan




Doimiy aholisi sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida **2,5 %**, Navoiy viloyatida **2,9 %**, Jizzax viloyatida **4,1 %**, Xorazm viloyatida **5,4 %** va Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa **5,4 %** ni tashkil etgan.

II BO‘LIM. TUG‘ILISH


O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan tug‘ilishlar

2023-yil yanvar-sentabr

Yanvar-sentabr oylarida
tug‘ilishlar soni, *ming kishi*



O‘sish sur‘ati



Jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

O‘g‘il bolalar



51,8 %

371,6
ming kishi

Qiz bolalar



48,2 %

345,3
ming kishi

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,
kishi/ulushi

O‘g‘il bolalar



39 512

Yanvar

36 699

51,8 % 48,2 %

33 703

Fevral

31 176

51,9 % 48,1 %

38 160

Mart

35 788

51,6 % 48,4 %

34 280

Aprel

31 507

52,1 % 47,9 %

42 009

May

39 129

51,8 % 48,2 %

37 784

Iyun

34 825

52,0 % 48,0 %

49 527

Iyul

45 847

51,9 % 48,1 %

50 382

Avgust

46 928

51,8 % 48,2 %

46 240

Sentabr

43 389

51,6 % 48,4 %

Shahar va qishloq joylar
bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



50,1 %

359,0
ming kishi

Qishloq



49,9 %


357,9
ming kishi

2023-yil yanvar-sentabr oylarida tirik tug‘ilganlar soni 716,9 ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni 371,6 ming kishini, qiz bolalar soni 345,3 ming kishi, tirik tug‘ilganlar soni shahar joylarida 359,0 ming kishini, qishloq joylarida 357,9 ming kishini tashkil etdi.

Tirik tug‘ilish – nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishlaridan biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim;

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-sentabr




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarni chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar **97,7 %** ni, 2 nafar tug‘ilganlar **2,2 %** ni, 3 nafar va undan ortiq tug‘ilganlar **0,1 %** ni tashkil etdi.

Tug‘ilganlar sonini aniqlashda Oila kodeksiga muvofiq, tug‘ilgan chaqaloqning onasi yoki otasining doimiy yashash joyiga qarab tug‘ilgan hududi aniqlanadi hamda o‘sha hududning aholisi soniga qo‘shiladi;

Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi

2023-yil yanvar-sentabr




2023-yil yanvar-sentabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **10,2 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **83,3 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **6,5 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **38,0 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **60,9 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,1 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar

2023-yil yanvar-sentabr

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo‘yicha tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori Surxondaryo viloyatida **30,8** promille, Qashqadaryo viloyatida **28,7** promille, Namangan viloyatida **28,0** promille, eng kam ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida **21,8** promille Buxoro viloyatida **22,6** promille va Xorazm viloyatida **23,0** promilleni tashkil etgan.

O‘sinh sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Tug‘ilishlarning o‘sinh sur‘ati eng yuqori darajasi Surxondaryo viloyatida **109,5 %** ga, Xorazm viloyatida **108,7 %** ga, Farg‘ona viloyatida **108,0 %** ga, Namangan viloyatida **105,3 %** ga va Qashqadaryo viloyatida **105,0 %** ga teng bo‘lgan.

O‘sinh sur‘ati nisbatan past bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan % da




Tug‘ilishlarning o‘sinh sur‘ati eng past darajasi Toshkent viloyatida **99,5 %** da, Sirdaryo viloyatida **101,2 %** da, Navoiy viloyatida **104,1 %** da, Toshkent shahrida **104,4 %** da va Jizzax viloyatida **104,4 %** da kuzatilgan.


III BO‘LIM. VAFOT ETGANLAR

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar 2023-yil yanvar-sentabr

Yanvar- sentabr oylarida vafot etganlar soni, ming kishi




O‘shish sur‘ati




Jinslar bo‘yicha taqsimlanishi

Erkaklar



Ayollar



Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar




Qishloq



2023-yil yanvar- sentabr oylarida vafot etganlar soni 129,7 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 71,4 ming kishini, ayollar soni 58,3 ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida 69,6 ming kishini, qishloq joylarida 60,1 ming kishini tashkil etdi.


Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi



O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta‘sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari;

O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar-sentabr, % da



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **58,9** foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **10,7** foizi – o‘simtalardan, **6,6** foizi – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **4,7** foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,6** foizi – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,4** foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **14,1** foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar-sentabr



2023-yil yanvar-sentabr oylarida vafot etganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar **12,1** % ni, mehnatga layoqatli yoshdagilar **23,9** % ni va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar **64,0** % ni tashkil etgan.


O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar
2023-yil yanvar-sentabr

Hududlar kesimida o‘limlar soni
va koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha vafot etish koeffitsiyenti eng yuqori Qoraqalpog‘iston Respublikasida va Sirdaryo viloyatida 5,3 promille, Toshkent shahrida Toshkent viloyatida va Surxondaryo viloyatida 5,0 promille, eng kam ko‘rsatkich Navoiy viloyatida 4,2 promille, Buxoro viloyatida 4,3 promilleni tashkil etgan.

O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan
hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



O‘limlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Sirdaryo viloyatida 112,9 % ga, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 109,9 % ga, Navoiy viloyatida 103,1 % ga, Namangan viloyatida 102,0 % ga va Andijon viloyatida 101,8 % ga teng bo‘lgan.

O‘shish sur‘ati past bo‘lgan
hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da




O‘limlarning o‘shish sur‘ati Toshkent shahrida 88,2 % ni, Buxoro viloyatida 92,9 % ni, Xorazm viloyatida 94,4 % ni, Farg‘ona viloyatida 96,5 % ni va Qashqadaryo viloyatida 97,0 % ni tashkil etib, sezilarli kamaygan.

IV BO‘LIM. NIKOHLAR


O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan nikohlar

2023-yil yanvar-sentabr

Yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni, ming birlik




O‘sish sur‘ati



2023-yil yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **184,5** ming birlikni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **12,5** birlikka kamaygan. 2020-yilning mos davri bilan taqqoslanganda **0,5** ming birlikka ko‘payganligi kuzatildi.

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



2023-yil yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **184,5** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **93,7** mingtani (**50,8 %**), qishloq joylarida **90,8** mingtani (**49,2 %**) tashkil etgan.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, birlik/ulushi

Shahar Qishloq

Oy	Shahar (Ulushi)	Qishloq (Ulushi)
Yanvar	7 879 (43,7 %)	10 153 (56,3 %)
Fevral	7 159 (48,0 %)	7 762 (52,0 %)
Mart	8 234 (49,8 %)	8 315 (50,2 %)
April	7 159 (53,9 %)	6 118 (46,1 %)
May	9 775 (53,3 %)	8 572 (46,7 %)
Iyun	9 653 (55,2 %)	7 835 (44,8 %)
Iyul	12 440 (52,2 %)	11 414 (47,8 %)
Avgust	15 866 (50,7 %)	15 427 (49,3 %)
Sentabr	15 471 (50,4 %)	15 229 (49,6 %)

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi;

Nikohlanganlarning o‘rtacha yoshi

2023-yil yanvar- sentabr




2023-yil yanvar- sentabr oylari davomida qayd etilgan nikohlarda ayollarning o‘rtacha yoshi **22,5** yoshni, erkaklarning o‘rtacha yoshi esa **27,3** yoshni tashkil etgan. Qayd etilgan nikohlarning eng katta ulushi 25 yoshgacha bo‘lgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohlarning **74,6** foizini tashkil etgan.

Nikoh yoshi – O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda, nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin;

Nikohlanuvchilarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar- sentabr, birlik



O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qayd etilgan nikohlar


2023-yil yanvar-sentabr

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik




Hududlar bo‘yicha nikoh koeffitsiyenti eng yuqori Navoiy viloyatida 7,4 promille, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatida va Toshkent shahrida 7,2 promille, eng past ko‘rsatkich Andijon viloyatida 6,2 promille, Namangan 6,3 promille, va Toshkent viloyatida 6,5 promilleni tashkil etgan.

O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Nikohlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Toshkent shahrida 99,4 % ga, Namangan viloyatida 97,3 % ga, Farg‘ona viloyatida 97,1 % ga, Andijon viloyatida 95,1 % ga va Navoiy viloyatida 93,7 % ga teng bo‘lgan.

O‘shish sur‘ati nisbatan past bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da




Nikohlarning o‘shish sur‘ati nisbatan past darajasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida 88,1 % da, Toshkent viloyatida 89,6 % da, Sirdaryo viloyatida 90,4 % da, Surxondaryo viloyatida 90,5 % da va Qashqadaryo viloyatida 92,6 % da ekanligi qayd qilingan.


V BO‘LIM. NIHOHDAN AJRALISHLAR

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar
2023-yil yanvar-sentabr

Yanvar-sentabr oylarida nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



O‘sish sur‘ati



2023-yil yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni **37,7** ming birlikni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **17,7** mingtaga yoki **1,9** barobarga ko‘payganligi kuzatildi.

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



Qishloq



2023-yil yanvar-sentabr oylarida nikohdan ajralishlarning soni **37,7** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **22,7** mingtani, (**60,3 %**), qishloq joylarida **15,0** mingtani (**39,7 %**) tashkil etdi.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, birlik/ulushi



Oy	Shahar (Ulushi)	Qishloq (Ulushi)
Yanvar	2 564 (59,4 %)	1 755 (40,6 %)
Fevral	2 526 (59,6 %)	1 714 (40,4 %)
Mart	2 681 (60,1 %)	1 781 (39,9 %)
April	2 447 (60,0 %)	1 634 (40,0 %)
May	2 928 (60,9 %)	1 883 (39,1 %)
Iyun	2 149 (61,3 %)	1 359 (38,7 %)
Iyul	2 673 (60,8 %)	1 722 (39,2 %)
Avgust	2 516 (60,8 %)	1 621 (39,2 %)
Sentabr	2 209 (59,7 %)	1 492 (40,3 %)

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarining to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh sud hal qiluv qarorlari asosida yoki FHDYO ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi;

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-sentabr

50,7 %



Farzandsiz ajrashganlar

2023-yil yanvar-sentabr oylarida farzandsiz nikohdan ajralishlar soni 19 094 tani tashkil etgan.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida 1 nafar farzand bilan nikohdan ajralishlar soni 10 229 tani tashkil etgan.

27,2 %



1 nafar farzand bilan ajrashganlar

22,1 %



2 va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar

2023-yil yanvar-sentabr oylarida 2 va undan ortiq farzand bilan nikohdan ajralishlar soni 8 331 tani tashkil etgan.

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi

2023-yil yanvar-sentabr

Erkaklar

37,0
yosh



Ayollar


32,9
yosh

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida erkaklar uchun 37,0 yoshni, ayollar uchun 32,9 yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo‘lgan ajralayotgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohdan ajrashganlarning 62,3 % ini tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar


2023-yil yanvar-sentabr

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqorisi Toshkent shahrida **2,1** promille, Sirdaryo viloyatida **1,8** promille, Andijon viloyatida **1,7** promille, eng kam ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida **1,0** promilleni tashkil etgan.

O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Nikohdan ajralishlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Xorazm viloyatida **126,7** % ga, Andijon viloyatida **116,2** % ga, Farg‘ona viloyatida **110,0** % ga, Jizzax viloyatida **108,3** % ga va Namangan viloyatida **106,1** % ga teng bo‘lgan.

O‘shish sur‘ati nisbatan past bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da




Nikohdan ajralishlarning o‘shish sur‘ati nisbatan past darajasi Samarqand viloyatida **92,1** %, Sirdaryo viloyatida **92,3** %, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **93,8** %, Buxoro viloyatida **95,0** % va Qashqadaryo viloyatida **96,3** % ekanligi qayd etilgan.

VI BO‘LIM. MIGRATSIYA


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

2023-yil yanvar-sentabr

Yanvar-sentabr oylarida jami ko‘chib kelganlar soni, *ming kishi*




O‘sish sur‘ati




Jinslar kesimida taqsimlanishi

Erkaklar




Ayollar



Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



Qishloq



2023-yil yanvar-sentabr oylarida ko‘chib kelganlar soni **168,7** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **70,1** ming kishini, ayollar soni **98,6** ming kishi, ko‘chib kelganlar soni shahar joylarida **131,3** ming kishini, qishloq joylarida **37,4** ming kishini tashkil etdi.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, *kishi/ulushi*

Erkaklar


Ayollar

Oy	Erkaklar (kishi)	Ayollar (kishi)	Erkaklar (%)	Ayollar (%)
Yanvar	6 747	9 641	41,2 %	58,8 %
Fevral	7 486	10 714	41,1 %	58,9 %
Mart	7 041	9 858	41,7 %	58,3 %
April	7 143	9 851	42,0 %	58,0 %
May	8 864	12 047	42,4 %	57,6 %
Iyun	7 056	9 833	41,8 %	58,2 %
Iyul	9 356	13 447	41,0 %	59,0 %
Avqust	8 921	12 816	41,0 %	59,0 %
Sentabr	7 488	10 413	41,8 %	58,2 %

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;

Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar-sentabr



O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan **38,9 %**), Qozog‘iston Respublikasi (**24,5 %**), Tojikiston Respublikasi (**10,5 %**), Qirg‘iz Respublikasi (**5,1 %**), Turkmaniston Respublikasi (**1,6 %**) va boshqa mamlakatlar (**19,4 %**) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ko‘chib kelganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-sentabr




2023-yil yanvar-sentabr oylarida ko‘chib kelganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda **9,4 %** mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **82,8 %** mehnatga layoqatli yoshdagilar va **7,8 %** mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar


2023-yil yanvar-sentabr

**Ko‘chib kelganlar soni
va koeffitsiyenti, kishi**




Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqorisi Toshkent shahrida **32,9** promille, Navoiy viloyatida **10,3** promille, Toshkent viloyatida **9,6** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **0,9** promille, Andijon viloyatida **2,0** promille va Farg‘ona viloyatida **2,3** promilleni tashkil etgan.

**O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan
hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da**



Ko‘chib kelganlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Buxoro viloyatida **125,0 %** ga, Samarqand viloyatida **122,5 %** ga, Navoiy viloyatida **119,1 %** ga, Xorazm viloyatida **113,5 %** ga va Qoraqalpog‘iston Respublikasida **108,3 %** ga teng bo‘lgan.

**O‘shish sur‘ati nisbatan past bo‘lgan
hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da**




Ko‘chib kelganlarning o‘shish sur‘ati nisbatan past darajasi Sirdaryo viloyatida **92,5 %**, Toshkent shahrida **94,6 %**, Qashqadaryo viloyatida **95,8 %**, Jizzax viloyatida **96,0 %** va Andijon viloyatida **101,5 %** qayd etilgan.


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

2023-yil yanvar-sentabr

Yanvar-sentabr oylarida jami ko‘chib ketganlar soni, ming kishi




O‘sinh sur‘ati




Jinslar kesimida taqsimlanishi

Erkaklar



Ayollar



Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi



Erkaklar




Ayollar


Oy	Erkaklar (kishi)	Ayollar (kishi)
Yanvar	7 218 (42,0 %)	9 960 (58,0 %)
Fevral	7 937 (41,8 %)	11 049 (58,2 %)
Mart	7 776 (42,1 %)	10 686 (57,9 %)
April	7 675 (42,4 %)	10 413 (57,6 %)
May	9 555 (42,6 %)	12 878 (57,4 %)
Iyun	7 821 (42,1 %)	10 736 (57,9 %)
Iyul	10 227 (41,5 %)	14 423 (58,5 %)
Avgust	9 848 (41,3 %)	14 010 (58,7 %)
Sentabr	7 943 (42,0 %)	10 971 (58,0 %)

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar




Qishloq



2023-yil yanvar- sentabr oylarida ko‘chib ketganlar soni **181,1** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **76,0** ming kishini, ayollar soni **105,1** ming kishi, ko‘chib ketganlar soni shahar joylarida **124,4** ming kishini, qishloq joylarida **56,7** ming kishini tashkil etdi.


Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan chiqarishda tuziladigan ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;

Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi 2023-yil yanvar-sentabr



O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami 81,3 %), Rossiya Federatsiyasi (15,3 %), Qirg‘iz Respublikasi (0,5 %), Janubiy koreya (0,5 %), Turkmaniston Respublikasi (0,2 %) va boshqa mamlakatlar (2,2 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ko‘chib ketganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi 2023-yil yanvar-sentabr



2023-yil yanvar-sentabr oylarida ko‘chib ketganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 10,4 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 81,4 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 8,2 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar


2023-yil yanvar-sentabr

Ko‘chib ketganlar soni va
koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqorisi Toshkent shahrida **24,8** promille, Navoiy viloyatida **12,9** promille, Toshkent viloyatlarida **9,7** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **1,6** promille, Andijon viloyatida **2,5** promille va Farg‘ona viloyatida **2,9** promilleni tashkil etgan.

O‘sinh sur‘ati yuqori bo‘lgan
hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Ko‘chib ketganlarning o‘sinh sur‘ati eng yuqori darajasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida **168,4** % ga, Navoiy viloyatida **143,7** % ga, Buxoro viloyatida **121,4** % ga, Xorazm viloyatida **115,9** % ga va Toshkent shahrida **115,4** % ga teng bo‘lgan.

O‘sinh sur‘ati nisbatan past bo‘lgan
hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Ko‘chib ketganlar o‘sinh sur‘atining nisbatan past darajasi Toshkent viloyatida **81,5** %, Qashqadaryo viloyatida **94,5** %, Namangan viloyatida **94,6** %, Sirdaryo viloyatida **96,6** % va Surxondaryo viloyatida **97,2** % qayd etilgan.

Ta’rif

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylar (ovullar, qishloqlar va boshqalar)da istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikka, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinnarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.